

11-dars. Uch xonali songa ko'paytirish algoritmi



1. **Sonlarni** o'qing. Ularni **xona qo'shiluvchilari yig'indisi** ko'rinishida yozing.

12 327

145 275

45 808

76 584



2. Ifodaning qiymatini hisoblang.

$$549\,781 - (283 \cdot 37) + (325 \cdot 62) : 5$$

Uch xonali songa ko'paytirish qanday bajarilganini tushuntiring.

$$\begin{aligned} 245 \cdot 275 &= 245 \cdot (200 + 70 + 5) = \\ &= 245 \cdot 200 + 245 \cdot 70 + 245 \cdot 5 = 67\,375 \end{aligned}$$

49 000
17 150
1 225

Har qanday **sonni uch xonali songa ko'paytirish** ikki xonali songa ko'paytirish kabi bajariladi: avval son uch xonali sonning birliklariga, so'ng o'nliklariga, oxirida esa yuzliklariga ko'paytiriladi. So'ng hosil bo'lgan ko'paytmalar qo'shiladi. Bunda hosil bo'lgan **2 275** birlik birliklar tagiga, **975** o'nlik o'nliklar tagiga, **2 925** yuzlik esa yuzliklar tagiga yoziladi.



3. Ko'paytirishni **sharhlab, ustun shaklida** bajaring.

$$493 \cdot 237$$

$$692 \cdot 287$$

$$236 \cdot 124$$

$$896 \cdot 356$$

$$715 \cdot 428$$

$$345 \cdot 217$$



4. Ifodalarning qiymatini hisoblang va ularni taqqoslang.

a) 63 dm – 15 cm ☐ 8 m 35 dm – 6 m 25 cm

b) 15 m 8 dm + 13 dm 6 cm ☐ 9 m 6 dm – 3 m 6 cm

d) 21 dm 6 mm – 12 cm 8 mm ☐ 16 cm 5 mm + 8 dm

e) 3 km 14 m – 22 m ☐ 15 km 6 m – 11 km 25 m



5. Birinchi kun do'konda har biri 11 600 so'mdan 64 o'ram gazlama sotildi, ikkinchi kun esa shunday gazlamadan 15 o'ram kam sotildi. Do'kon gazlama sotishdan birinchi kun ikkinchi kundagidan necha so'm ko'p tushum olgan?



6. Botanika bog'ida lola, za'faron va sunbul yetishtiriladi. Jami nechta piyozbosh ekilgan?



sunbul

846 ta piyozbosh



za'faron

? ta piyozbosh,
sunbullarga qaraganda
318 ta ko'p



lolalar

? ta piyozbosh,
za'faronlarga qaraganda
4 marta kam

(?) ta piyozbosh



7. Tenglamalarni yeching.

a) $4\,640 : x + 18\,290 = 9\,806 + 8\,564$

b) $81 \cdot y - 267 = 13\,299 - 7\,896$

8. Botanika bog'ida turli o'simliklarning 30 460 ta urug'idan iborat kolleksiya saqlanadi. Shundan 5 580 tasi noyob o'simliklar urug'i, madaniy o'simliklar urug'i esa ulardan 4 marta ko'p, qolganlari xorijiy o'simliklar urug'i. Kolleksiyada nechta xorijiy o'simlik urug'i bor?

